



MATNNIHG PSIXOLINGVISTIK TAHLILIDA GRAMMATIK MODELLARDAN FOYDALANISH

Ziyoda Nabiyeva

M.Yusuf ijod maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini ishlab chiqib, ularni psixologik eksperimentlar yo‘li bilan tekshiradi. Ushbu maqolada matnnihg psixolingvistik tahlilida grammatik modellardan foydalanish haqida babs yuritiladi.

Kalit so’zlar: Psixolingvistika, empirik, derivatsion murakkablik, aqliy tuzulmalar, sintaktik tuzilish, tematik roller, neyrolingvistika, gipoteza, propozitsion tuzilishi, grammatik model

Аннотация: Психолингвистика разрабатывает модель речевой деятельности человека и психофизиологического речеобразования и исследует их посредством психологических экспериментов. В данной статье рассматривается использование грамматических моделей в психолингвистическом анализе текстов.

Ключевые слова: психолингвистика, эмпирический, деривационная сложность, ментальные структуры, синтаксическая структура, тематическая роль, нейролингвистика, гипотеза, пропозициональная структура, грамматическая модель

Abstract: Psycholinguistics develops a model of human speech activity and psychophysiological speech formation and examines them through psychological experiments. This article discusses the use of grammatical models in the psycholinguistic analysis of texts.

Keywords: Psycholinguistics, empirical, derivational complexity, mental structures, syntactic structure, thematic role, neurolinguistics, hypothesis, propositional structure, grammatical model

Nutqiy faoliyat jarayon sifatida qadimdan faylasuflarning tadqiqot obyektiga aylangan. Qadimgi Misr obidalarida qayd etilgan — Til yurakdagagi fikrni takrorlaydil iborasini tilning ruhiyat bilan chambarchas bog‘liqligi va uning mahsuli sifatida nutqda reallashishi haqidagi ilk ta‘rif deyish mumkin. Keyinchalik bu fikrlar antik davr faylasuflari tomonidan rivojlantirildi. Ular til va nutqni farqlab, nutqni so‘zlash jarayoni tarzida baholadilar. Jumladan, eramizdan avval V asrda yashagan grek faylasufi Demokrit “Til belgi sifatida muloqot uchun xizmat qiladi va voqelikni aks ettiradi”, degan g‘oyani ilgari suradi. Platon esa “Kratin” asarida nutqni inson ongida yaratiladigan faoliyat deya baholaydi. Buyuk faylasuf Aristotel esa nutqning kommunikativ xarakterda ekanligini e’tirof etgan holda og‘zaki va yozma nutqni farqlaydi. Uning fikricha, tovushlar qo‘silmasida ifodalangan nutq, qalbdagi tasavvurlar belgisi, yozuvdagi ifoda tovushlarning belgisidir.



Til va nutqqa notiqlikning bevosita asosi sifatida qaralgan Sharqda nutqning muvaffaqiyati so‘zlovchining axloqiy, ma‘naviy - ma‘rifiy yetukligi bilan uzviy bog‘liqligi e ‘tirof etilan . Jumladan, Forobiy quvvai notiqani inson fozilligining muhim belgilaridan biri hisoblasa, Husayn Voiz Koshifiy nutqda so‘zning o‘rni, so‘z tanlashda voizning didi, nazokati, tinglovchining umumiylasini saviyasini hisobga olish zarurligini ta‘kidlaydi. Amir Temur ham nutqiy ifodaning aniqligi va rostligini yuksak qadrlagan. Alisher Navoiy nutqiy faoliyatni insonni hayvondan ajratgan buyuk ne‘mat sifatida baholaydi va har bir so‘zga zargar kabi yondashadi. Z.M.Bobur farzandlariga nutqning sodda, ravon, aniq bo‘lishi muvaffaqiyatning garovi ekanligini uqtiradi. XX asr boshlarida millat ravnaqi va tilimiz fidoyilari: M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Cho‘lpon, A.Avloniyning qator maqolalarida ushbu masalalar tahlili o‘z aksini topgan.

Ma’lumki, til belgilarning murakkab tizimi sifatida shaxsning intellektual faoliyati, idroki, xotirasi, tafakkuri o‘rtasida vositachidir. Bu tizimga kirgan belgilar real olamdagi narsa va hodisalarни cheklanmagan holatda ifodalay oladi. Barcha til belgilari birlashib, shu til egalari yashaydigan va nimalarnidir yaratadigan alohida umumiylasini manzarani hosil qiladi. Aynan mana shu sababga ko‘ra insonlarning turmush tarzi, ijtimoiy holati rang-barang bo‘ladi va bir-birlaridan o‘zaro farqlanadi. Til va nutq birliklari belgi sifatida ma‘no, tushuncha, fikr ifodalaydi. Shu bois F.Sossyur tilni fikr ifoda etuvchi belgilar sistemasi deya ta‘riflaydi. Tilning belgi tabiatiga ega ekanligi va informatsiya uzatish, informatsiyani qabul qilish qobiliyatida yaqqol ko‘rinadi.

Psixolingvistika so‘zini birinchi bo‘lib amerikalik psixolog N.Pronko 1946- yil chop etilgan maqolasining sarlavhasida qo‘llagan bo‘lsa ham, bu atama 1953- yilga kelibgina Amerikaning Indiana shtati Blumington shahrida o‘tkazilgan universitetlararo tadqiqiy seminarda alohida fan, ilmiy nazariya nomi sifatida mazmun va mohiyat kasb etdi. Psixolingvistika - nutqning hosil bo‘lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o‘zaro bog‘lanishi holatida o‘rganuvchi fan; psixologiya va lingvistikating sintezidan paydo bo‘lgan. Inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini ishlab chiqib, ularni psixologik eksperimentlar yo‘li bilan tekshiradi. Tadqiqot manbayi bo‘yicha tilshunoslikka yaqin bo‘lgan bu soha o‘z tekshirish usullari bo‘yicha psixologiyaga yaqin turadi. Unda o‘zaro bog‘lanishli eksperiment, “semantik differensial” kabi va boshqa eksperimental usullar qo‘llanadi.

Nutq janri - odamlarning ijtimoiy o‘zaro ta’sirining odatiy holatlarini og‘zaki loyihalash. Mashhur rus filologi M.M. Baxtin aloqa janrlarini “jamiyat tarixidan til tarixiga uzatish kamari” deb atadi. Bu mikro-marosim, bu aloqa sheriklarining o‘zaro ta’sirining og‘zaki formulasi, ya’ni. Odatda bu uzoq muddatli aloqa (o‘zaro ta’sir) bo‘lib, u bir nechta mikrotekst birliklarini o‘z ichiga olgan dialogli birlikni yoki monologik bayonotni hosil qiladi. Nutq janrlariga samimiylasini suhbat, suhbat, janjal, kichik suhbat, stol suhbat, latifa, noz-karashma va boshqalar kiradi. Nutqni o‘rnatish “xabarga munosabat” (B.F.Baev), mos keladigan nutq stereotiplarini qo‘zg’atadi va keyingi og‘zaki va yozma xabarlar uchun so‘z va iboralar tanlovi mavjud.





IJTIMOIY STATUS - bu ma'lum bir muloqot holatiga va shaxsning ijtimoiy mavqeiga (maqomiga) mos keladigan, ijtimoiy tasdiqlangan xulq -atvor modeli. Ijtimoiy mavqe yoki maqom - bu shaxsning ijtimoiy guruh ierarxiyasida rasman o'matilgan yoki yashirin tan olingan o'rni.

MATN (lat. Textum - ulanish, ulanish) - Har qanday yozma yoki bosma nutq. Matn - bu xabar, biror narsa haqidagi ma'lumot, bu milliy tillardan biri orqali ifodalananadi.

Nutq shakllari (RD) - bu nutq xabarlarini tuzishning lingvistik vositalaridan foydalanishning mos variantiga asoslangan nutqni tizimli va semantik tashkil etishning "tipik" usullari.

ETNOLINGVISTIKA - tilshunoslikning bir tarmog'i, xalq, millatning ruhiy, etnik va boshqa xususiyatlarini va ularning til tizimida aksini o'rganadi. ETHNOS -bu tabiiy-tarixan shakllangan barqaror odamlar jamiyatni, ularning asosiy stadijal turlari qabilalar, millatlardir. Etnik guruhlarning vujudga kelish shartlari umumiyligi hudud va umumiyligi til bo'lib, keyinchalik ular odatda etnik guruhnинг belgisi bo'lib xizmat qiladi. Ko'pincha, etnos turli guruhlardan iborat (masalan, Amerikaning ko'plab ko'plab xalqlari) va keyin umumiyligi til etnogenezning natijasidir.

Matn va uni idrok etuvchi shaxs omilini o'rganish tadqiq obyektiga turli jihatlardan, xususan, semantik, psixologik, pragmatik, kognitiv va lingvokulturologik nuqtai nazardan yondashishni taqozo etadi. N.I.Jinkin ta'biri bilan aytganda: "Inson alohida gaplar vositasida emas, matn vositasida so'zlaydi". Shu sababli ham muayyan shaxs uslubi u yaratgan matnlar asosida tadqiq etilsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Biror yozuvchi yoki ijodkorning nutqiy uslubini uning so'z qo'llash yoki jumla tuzish mahorati nuqtai nazari bilan tadqiq qilish usuli bugungi kun talabiga javob bermaydi. Shu boisdan matn yaratilishi masalasini shaxs uslubi nuqtai nazaridan o'rganish matnning lingvistik jihatlariga teranroq nazar bilan qarashga olib keladi.

Demak, matn talqini va shaxs omili masalasi matn yaratilishi va uning mazmuniy pertseptsiyasi muammolari bilan uzviy bog'liqdir. Bu masalani tadqiq etishda matn yaratuvchi shaxsnigina emas, uni idrok etuvchi shaxs – tinglovchi yoki o'quvchi omilini ham o'rganish muhimdir. Rus tilshunosi R.I.Galperinning fikriga ko'ra esa, qog'ozga yozilib, hali o'qilmagan matn harakatsiz matndir. Xususan, yozma matn o'quvchi tomonidan o'qilmaguncha harakatga kelmaydi, unda ifodalangan mazmun va pragmatik maqsad, ohang orqali yuzaga kelgan kayfiyat retsipient tomonidan tushunilmaydi va his etilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Белянин В. П. Психолингвистика. Учебное пособие. - М.: Флинта, 2008.
2. Сафонова О.А. Психоливистика: новые технологии анализа поэтического текста. Учебное пособие. - Краснодар, 2012.



3. Urokova N. (2019). Genre research in Uzbek poems of recent times. Theoretical and Applied Science, (8), 57-59.
4. Nafosat U., Quvvatova D.(2019). International Journal of Engineering and Advanced Technology, 8(5 Speacial Issue 3), 396-399.
- 5.Xudayberganova D.S. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini: Filol. fanlari doktori ... diss. – Toshkent, 2015. – B. 36.
- 6.Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va yning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.– B. 12.
- 7.Ulug‘ov A. Har bolada shaxs ulg‘ayadi // Hurriyat. – Toshkent, 1998. – № 24 (76). – B. 1.
- 8.Umarxo‘jayeva O. Bolalar nutqining ba’zi fonetik xususiyatlari. O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent

